



FARG'ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 19-iyun

82-11-167-F/24

Quvasoy shahar hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga hamda Farg'ona viloyati hokimining 2024-yil 7-iyundagi 220-11-0-F/24-sonli farmoyishiga muvofiq, 2024-yil **"Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"** munosabati bilan respublikada **30-iyun – "Yoshlar kuni"**ni keng nishonlash, yoshlarning muammolari, orzu-intilishlari hamda g'oya va tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-maydagi 345-son hamda Farg'ona viloyati hokimining 2024-yil 7-iyundagi 220-11-0-F/24-sonli farmoyishlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Farg'ona viloyati hokimining mazkur farmoyishlariga muvofiq:

30-iyun - "Yoshlar kuni" munosabati bilan joriy yil iyun oyini **"Yoshlar oyligi"** deb e'lon qilish hamda uning doirasida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari, yoshlar festivallari va forumlarini "mahalla - tuman (shahar) - viloyat" darajasida tashkil etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Yoshlar oyligi"ni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitaning (keyingi o'rinlarda - tashkiliy qo'mita) tarkibi **1-ilovaga** va "Yoshlar oyligi" doirasidagi tadbirlarni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi **2-ilovaga** tasdiqlansin.

4. Shahar tashkiliy qo'mitasi (A.Mamajonov) va shahardagi bo'lim, tashkilot va muassasalar rahbarlari bilan birgalikda:

"Yoshlar oyligi" va "Yoshlar kuni" munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlar joylari va muddatlarini belgilash, tadbirlarni o'tkazish bo'yicha namunali dastur senariysini ishlab chiqish;

"Yoshlar kuni" bayram tadbirlari doirasida **"Yoshlar gala-konserti"**ni o'tkazish uchun maxsus pavilyonlar tashkil etish vazifalari yuklansin.

"Yoshlar oyligi" doirasidagi barcha tadbirlarni tashkiliy jihatdan ta'minlash va muvofiqlashtirish choralari ko'rsin.

5. Shahar hokimi o‘rinbosari A.Mamajonov va Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov):

Tadbirlarni yuqori darajada tashkil etish, tadbirlar o‘tkaziladigan har bir obektga tegishli tashkilotlardan mutasaddi rahbarlarni biriktirsin;

shahardagi faol yoshlarning 30-iyun kuni Toshkent shahrida o‘tkaziladigan yakuniy tadbirlarda videoaloqa orqali ishtirok etishi hamda tadbir o‘tkaziladigan joyning bayramona bezatilishini tashkil etsin;

viloyat tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan targ‘ibot materiallarini (maxsus videoroliklar, targ‘ibot bannerlari va boshqa tashqi targ‘ibot vositalari) barcha hududlarda namoyish etish va o‘rnatish choralari ko‘rsin.

6. Bo‘lim, tashkilot va muassasalar rahbarlari, Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov) bilan birgalikda ushbu farmoyishning **2-ilovasi** bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

7. Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov)ga:

“Yoshlar oyligi” doirasida mahallalardagi yoshlar yetakchilari va ko‘ngilli yoshlar tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi mavjud nuroniy va yoshlar holidan xabar olishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etsin;

ijtimoiy tarmoqlarda **#yoshlarkuni**, **#yoshlik**, **#yoshlarbilan** xeshteglarini ommalashtirish choralari ko‘rsin;

tadbirlarda chekka mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlarni, birinchi navbatda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollar va “Temir daftar”dagi oilalar farzandlarini jalb etish choralari ko‘rsin.

8. Madaniyat bo‘limi (B.Dadajonov):

“Yoshlar oyligi” doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarga belgilangan tartibda boshlovchilar, taniqli san‘at ustalari, estrada xonandalari, yosh ijrochilar hamda raqs guruhlari jalb etilishini ta‘minlasin;

“Yoshlar oyligi” doirasida **“Madaniyat, san‘at va ijod haftaligi”** tadbirlarini alohida reja asosida yuqori saviyada tashkil etilishini ta‘minlasin.

9. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Toshbekov), Savdo-sanoat palatasi bo‘limi, shahardagi tijorat banklari;

“Yoshlar oyligi” doirasida **“Tadbirkorlik va kasb-hunar haftaligi”** tadbirlarini alohida reja asosida yuqori saviyada tashkil etilishini ta‘minlasin;

tadbirlarda yosh tadbirkor, hunarmand, fermerlar ishtirokini ta‘minlasin.

10. Maktabgacha va maktab ta‘imi bo‘limi (E.Kuziyev), Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (R.Rayimjonov) “Yoshlar oyligi” doirasida **“Ta‘lim va kitobxonlik haftaligi”** tadbirlarini alohida reja asosida yuqori saviyada tashkil etilishini ta‘minlasin.

11. Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), shahardagi Sport maktablari:

tadbirlarda taniqli sportchilar ishtirokini ta'minlasin;

“Yoshlar oyli” doirasida reja asosida “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasini yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlasin.

12. Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'linmasi (R.Rayimjonov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tadbirlar o'tadigan joylarda so'nggi yillarda erishilgan yutuqlarni aks ettiruvchi, yoshlarni ezgu va bunyodkorlik g'oyalari ostida birlashtirishga qaratilgan ko'rgazmali pano va bannerlar hamda tashqi targ'ibot vositalari bilan bezash choralari ko'rsin.

13. “Shahar elektr tarmoqlari” korxonasi (M.Usmonov) “Yoshlar oyli” doirasida tadbirlar o'tkaziladigan obektlar hududiga olib keluvchi hamda hududdagi tashqi elektr ta'minoti va uzatgichlarni taftishdan o'tkazsin, tadbir vaqtida elektr quvvati to'liq va uzluksiz ishlab turishini ta'minlasin.

14. Ichki ishlar bo'limi (D.Asqarov), Favqulodda vaziyatlar bo'limi (M.Milibayev), Qo'riqlash bo'limi (V.Umarov):

tadbirlarda bo'lib o'tadigan joylarda jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, yong'in xavfsizligiga rioya qilish va favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

zaruratga ko'ra, tadbirlar bo'lib o'tadigan ko'chalarda transport vositalarining harakatini belgilangan tartibda vaqtinchalik cheklash choralari ko'rsin.

15. Shahar Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (M.Yusupov):

tadbirlar o'tadigan va ishtirokchilar joylashgan obektlarda tibbiy xizmat navbatchiligini tashkil etsin;

tadbirlar davomida ishtirokchilar uchun tayyorlanadigan oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar sifatini nazorat qilsin hamda sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari talablariga rioya etilishini ta'minlasin.

16. Shahar hokimligi axborot xizmati (N.Mirzayev) va boshqa ommaviy axborot vositalariga tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, maqolalarni chop etish, internet tarmoqlariga joylashtirish tavsiya etilsin.

17. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimi o'rinbosari A.Mamajonov zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi



Z.K.To'raikulov

Quvasoy shahar hokimining
2024-yil 19-iyundagi
82-11-167-F/24-son farmoyishiga
1-ilova

**“Yoshlar oyligi”ni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish
bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning
TARKIBI**

	F.I.Sh	Egallab turgan lavozimi
1.	A.Mamajonov	Shahar hokimining o‘rinbosari, tashkiliy qo‘mita raisi
2.	B.Fozilov	Yoshlar ishlari shahar bo‘limi boshlig‘i, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
3.	D.Asqarov	Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
4.	E.Kuziyev	Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi boshlig‘i
5.	B.Dadajonov	Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
6.	X.Shermatov	1-son Sport maktab direktori
7.	N.Xojimaxsudov	Shahar tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
8.	I.Dadaboyev	O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi shahar bo‘limi boshlig‘i
9.	E.Toshbekov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
10.	SH.Tojimamatov	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
11.	A.Muratov	Mudofaa bo‘limi boshlig‘i
12.	V.Umarov	Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i
13.	R.Milibayev	Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
14.	Lavozimiga ko‘ra	Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi boshlig‘i
15.	R.Rayimjonov	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi shahar bo‘linmasi boshlig‘i
16.	J.Mo‘ysinjonov	Yoshlar ishlari bo‘limi bosh mutaxassisi, tashkiliy qo‘mita mas’ul kotibi

Izoh: Tashkiliy qo‘mita a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalar bajarish yuklangan shaxslar tashkiliy qo‘mita tarkibiga kiritiladi.

Quvasoy shahar hokimining
2024-yil 19-iyundagi
82-11-167-F/24-son farmoyishiga
2-ilova

**“Yoshlar oyligi” doirasida “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o‘tkaziladigan yoshlar sayllari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	30-iyun — “Yoshlar kuni” munosabati bilan “Yoshlar oyligi”ni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita yig‘ilishini o‘tkazish va mas’ullarga aniq vazifalarni belgilab berish.	1. Tashkiliy qo‘mita a‘zolari ishtirokida “Yoshlar oyligi”ni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha muhokama yig‘ilishini o‘tkazish.	2024-yil iyun	Shahar hokimi o‘rinboari (A.Mamajonov), Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), tashkiliy qo‘mita a‘zolari
2.	O‘zbekiston tumanida 30-iyun — “Yoshlar kuni” madaniy - ma’rifiy va ko‘ngilochar tadbirlar, yoshlar gala-konsert dasturini yuqori saviyada tashkil etish.	1. Shahar markazi va mahallalarda o‘tkaziladigan tadbirlar reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. “Yoshlar gala-konsert”ni o‘tkazish dasturi va ssenariysini ishlab chiqish. 3. Konsert dasturlariga taniqli sa’natkorlarni jalb etish.	2024-yil 10-30-iyun	Shahar hokimi o‘rinboari (A.Mamajonov), Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Madaniyat bo‘limi (B.Dadajonov)
3.	“Yoshlar kuni” bayram tadbiri (Yoshlar gala-konserti) o‘tkaziladigan joyda maxsus pavilyon tashkil etish.	1. Tadbir o‘tadigan joyga maxsus pavilyon joylashtirish. 2. “Yoshlar gala-konsert”ni yuqori saviyada tashkil etish.	2024-yil 15-30-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Madaniyat bo‘limi (B.Dadajonov)

4.	“Yoshlar oyligi” doirasida “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida “Farg‘ona oqshomlari” madaniy tadbirlarini tashkil etish. Alohida reja asosida.	1. Tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha namunaviy dastur va ssenariy tayyorlash. 2. Manzilli rejasi asosida mahallalarda o‘tkaziladigan uchrashuvlarga taniqli san’atkorlarni ishtirokini ta’minlash.	2024-yil iyun-iyul	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Madaniyat bo‘limi, Yoshlar ishlari bo‘limi
5.	Shahardagi faol yoshlarning 30-iyun kuni Toshkent shahrida o‘tkaziladigan yakuniy tadbirlarda videoaloqa orqali ishtirok etishi hamda tadbir o‘tkaziladigan joyning bayramona bezatilishini tashkil etish.	1. Tadbir o‘tkazish manzili aniqlash va bayramona bezatish. 2. Tadbir o‘tkaziladigan joyni yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash.	2024-yil 28-30-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Shahar telekommunikatsiyalar bog‘lanmasi
6.	Tashkiliy qo‘mita tomonidan tavsiya etilgan targ‘ibot materiallarini (maxsus videoroliklar, targ‘ibot bannerlari va boshqa tashqi targ‘ibot vositalari) namoyish etish va o‘rnatish.	1. Targ‘ibot materiallarini saralash. 2. Targ‘ibot materiallarini aholi gavyum joylarga o‘rnatish.	2024-yil iyun oyi davomida	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov)
7.	“Yoshlar oyligi” doirasida mahallalardagi yoshlar yetakchilari va ko‘ngilli yoshlar tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi mavjud nuroniy va yoshlar ro‘yxatini shakllantirish. 4. Nogironligi mavjud yoshlar holidan xabar olish.	3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi mavjud nuroniy va yoshlar ro‘yxatini shakllantirish. 4. Nogironligi mavjud yoshlar holidan xabar olish.	2024-yil lyun oyi davomida	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (O‘.Karimov)

8.	“Yoshlar oyligi” doirasida harbiy - vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish.	5. “Yoshlar oyligi” doirasida harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha alohida reja-grafik ishlab chiqish. 6. “Yoshlar oyligi” doirasidagi tadbirlarda harbiy ansambl, orkest va harbiylarning ko‘rgazmali chiqishlarini tashkil etish. 7. Reja-grafik asosida belgilangan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish.	2024-yil iyun oyi davomida	Mudofaa ishlari bo‘limi (A.Muratov), Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov)
9.	“Yoshlar oyligi” doirasida haftaliklar tashkil etish.	8. “Tadbirkorlik va kasb-hunar haftaligi”ni o‘tkazish. 9. “Ta’lim va kitobxonlik haftaligi”ni o‘tkazish. 10. “Madaniyat, san’at va ijod haftaligi”ni o‘tkazish.	2024-yil 5-10-iyun 2024-yil 19-24-iyun 2024-yil 26-30-iyun	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Tashbekov), Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi, shahardagi tijorat banklari, Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (E.Kuziyev), Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Ma’naviyat va ma’rifat markazi (R.Rayimjonov), Madaniyat bo‘limi (B.Dadajonov)
10.	“Yoshlar oyligi” doirasidagi tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni tashkil etish.	11. “Yoshlar oyligi” doirasidagi tadbirlar mediya-rejasini ishlab chiqish. 12. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.	2024-yil iyun oyi davomida	Shahar hokimligi axborot xizmati (N.Mirzayev), “Isfayram” gazetasi (O‘.Karimova)

Mahallalarda tashkil etiladigan loyiha va tadbirlar

11.	Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvlarini o'tkazish.	13. Sektor kesimidagi "Yoshlar uchrashuvlari" reja-jadvalini ishlab phiqish. 14. Sektor rahbari va yoshlar uchrashuvlariga mahalla yoshlari ishtirokini ta'minlash. 15. Uchrashuvlarda kelib tushgan murojaatlarni hal etish.	2024-yil iyun	Shahar sektor rahbarlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi bo'limi (I.Dadayoyev), Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov)
12.	Yetakchilar forumi (mini futbol, voleybol, ko'p kurash musobaqalari va milliy taomlar tanlovi)ni tashkil etish.	16. Tanlov o'tkazish bo'yicha xuquqiy hujjat va nizom ishlab chiqish. 17. Tanlovning tuman bosqichini o'tkazish. 18. Tanlov g'oliblarini munosib taqdirlash.	2024-yil 10-13-iyun	Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), Sport maktablari
13.	Kybersport musobaqalarini tashkil etish.	1. Musobaqada tashkil etishda hakamlar hay'atini ro'yxatini, musobaqa o'tkaziladigan manzilni tayyorlash. 2. Musobaqa g'oliblarini munosib taqdirlash. 3. Musobaqani ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlari tashkil etish.	2024-yil 14-iyun	Sport maktablari, Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Kuziyev)

14.	Yakka yolg'iz keksalar, o'zgalar qaramog'iga muhtojlar va qabristonlarda xashar, obodonlashtirishga qaratilgan "Mehribon ko'ngil" loyihasini o'tkazish.	4. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish. 5. Ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 6. Loyihani o'z vaqtida sifatli o'tkazish.	2024-yil 15-iyun	Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi bo'limi (I.Dadaboyev)
15.	"Biz birgamiz" ijtimoiy loyihasi (nogironligi bor, o'zgalar qaramog'iga muhtoj yoshlar holidan xabar olish, ular ko'ngliga bayram kayfiyatini yetkazishni tashkil etish.	7. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish. 8. Ishchi guruh tarkibini shakllantirish. 9. Loyihani o'z vaqtida sifatli o'tkazish.	2024-yil 18-19-iyun	Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Kuziyev)
16.	Ustoz AI, Uzchess, Ibrat farzandlari, Mutolaa loyihalari targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	10. Yoshlar orasida mazkur loyihadan foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini o'tkazish. 11. Mahallalardagi chet tillarini o'rganish istagidagi yoshlarning mobil telefonlariga ilovani o'ratish.	2024-yil 20-iyun	Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Kuziyev)
17.	Ochiq osmon ostida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazish.	1. Tanlov ishtirokchilarini baxolash bo'yicha hakamlar hay'ati ro'yxatini shakllantirish. 2. Tanlov g'oliblarini munosib taqdirlash.	2024-yil 21-iyun	Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Kuziyev) Madaniyat bo'limi (B.Dadajonov)
18.	"Kitoblar marafoni" loyihasini tashkil etish.	Axborot-kutubxona markazining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tanlovlarni yuqori saviyada o'tkazish.	2024-yil 24-iyun	Yoshlar ishlari bo'limi (B.Fozilov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Kuziyev)

19.	“Yetakchi tashabbusi” loyihasini tashkil etish.	12. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish. 13. Ishchi gumh tarkibini shakllantirish. 14. Loyihani o‘z vaqtida o‘tkazish.	2024-yil 25-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov)
20.	Xorijdagi vatandosh loyihasini tashkil etish.	15. Chet davlatiga ketgana yoshlarning ro‘yxatini shakllantirish. 16. Uchrashuvlar o‘tkazish grafigini ishlab chiqish. 17. Uchrashuvlarni doimiy tashkil etib borish.	2024-yil 26-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov)
21.	Mahallamiz iftihorlari (turli sohalarda yuksak natijalarga erishgan, el-yurt xizmatida bo‘lgan mehnat faxriylari, faol iqtidor yoshlar) loyihasi doirasida uchrashuvlar tashkil etish.	18. Uchrashuvlar reja-jadvalini ishlab chiqish. 19. Uchrashuvlarni o‘z vaqtida va sifatli tashkil etish.	2024-yil 26-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Madaniyat bo‘limi (B.Dadajonov)
22.	“Mahallamiz bilimdoni” onlayn viktorinasini o‘tkazish.	20. Viktorigi nizomini ishlab chiqish. 21. Viktorinani yoshlar orasida kengi targ‘ib etish. 22. Tanlovni nizom asosida o‘tkazish.	2024-yil 27-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (E.Kuziyev)
23.	“Yoshlar oqshomi” gala-konsertini tashkil etish.	1. “Yoshlar oqshomi” galakonsert tadbiriga mahalla yoshlarini keng jalb etish. 2. “Yoshlar oqshomi” galakonsertini ommaviy axborot vositalarida yoritish.	2024-yil 27-30-iyun	Yoshlar ishlari bo‘limi (B.Fozilov), Madaniyat bo‘limi (B.Dadajonov)

